

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“KELISHILGAN”**

San'atshunoslik fakulteti

dekani  S.S. Azimov

“ ” 2024 yil



**“TASDIQLAYMAN”**

O'quv ishlari bo'yicha

prorektor  R.G. Jumayev

2024 yil

**5151700 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda  
boshqarish ta'limi yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan  
Yakuniy davlat attestatsiyasi BMI  
DASTURI**

**Buxoro – 2024 yil**

## ANNOTATSIYA

5151700 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha fan dasturi talabalariga mos bilimlarga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Bitiruvchi talabalar dasturda ko'rsatilgan o'quv materiallari to'g'risida o'zlarining fikr va mulohazalarini bayon etishlari talab etiladi.

Talaba "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari" fanidan quyidagilar bo'yicha davlat imtihoni topshiradilar va bitiruv malakaviy ish yozadi.

- madaniyat va san'at sohasida innovatsion texnologiyalar;
- teatrlar faoliyati;
- madaniyat va istirohat bog'lari faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- muzeylar va ko'rgazma zallari faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish;
- madaniyat va san'at saroylari faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- konsert tashkilotlari va badiiy jamoalari faoliyatiga doir tashkiliy masalalar;
- havaskorlik ijodiy jamoalari va to'garaklari faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyati va ijodiy jamoalarini tashkil etish va boshqarish;
- axbotot-resurs markazlari, kutubxonalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish, madaniyat va san'at sohasi muassasalarining tarbiyaviy funksiyalarini uyg'unlashtirish;
- madaniy tadbirlarni tashkil etishning asosi bo'lgan ssenariy yaratish, inssenirovka qilish usullari, matn yaratish, hujjatli, mahalliy va faktik materiallarni badiiylashtirish va sahnalashtirish;
- madaniy tadbirlar turlari xususiyatlari jihatidan ssenariylar yozish;
- badiiy asarlarni inssenirovka qilish;
- mavzular bo'yicha madaniy tadbirlar dramaturgiyasini yaratish;
- sahna, maydon va ekran san'ati qonuniyatlarini, xususiyatlarini, jarayonlarni tahlil qilish;
- muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish va to'laqonli tadbirlarni o'tkaza olish.

## KIRISH

5151700 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi. Fan dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga "bakalavr" malaka (daraja) si hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi. Bakalavr yakunida davlat attestatsiyasi doirasida o'quv rejadagi "Ixtisoslik fanlari" fanlaridan amaliy imtihon topshirishi nazarda tutilgan.

### I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ham o'ziga xos o'rni va roli bor. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat turli mavzulardagi madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshirilgan ekan, unda badiiy jihatdan mukammal ssenariy yaratish o'tkaziladigan tadbirlarning asosiy manbasi hisoblanadi va hu orqali tadbirlarning mazmuni yoritiladi. Shu bois, madaniy tadbirlarning dramatik asosi bo'lmish puxta ssenariylar, insenirovkalar yaratish, sahnalashtirish va tashkil etish barcha madaniyat xodimlari oldiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy bilimlarini oshirish, ularni pok va halol yashashga chaqirish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish kabi xususiyatlarni shakllantirishda madaniy tadbirlar tashkilotchilariga alohida bilim, ko'nikma, mahurat va mehnat talab qilinadi. Mana shunday ulkan vazifalarni tadbirlar asosi ssenariylarga jo qilish-o'tkaziladigan tadbir va tomoshalarning qimmatini belgilaydi.

Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari yo'nalishi fanlari talabalarga O'zbekistonda madaniyat va san'atga e'tibor, madaniyat va san'at sohasi boshqaruviga oid nazariy, amaliy asoslar, xorijiy modellar, ilmiy-tarixiy tajribalar, madaniyat va san'at sohasida boshqaruv usullari va qarorlari, tizimdagi samaradorlik, transformatsion jarayonlar, zamon talablari, jahon standartlariga javob beradigan boshqaruv tizimining mohiyati va vazifalari haqida ma'lumotlarni mukammal egallashlari, o'z bilimlarini oshirishga ko'maklashadi.

O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil qilish va boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilgan. Mavjud madaniy markazlari, teatrlar, muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari, madaniyat saroylari, havaskorlik va badiiy jamoalari, konsert tashkilotlar, yuzlab kutubxona-axborot muassasalarni boshqarish, bozor iqtisodiyoti sharoitida, bugungi talablar darajasida faoliyat

yuritishi uchun mustahkam moddiy-texnika bazasi yaratilgani haqida tushunchalar beradi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Mukammal yozilgan ssenariylar madaniy-ommaviy tadbirlarning mazmunli, effektli va muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish orqali aholining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Mazkur ta'lim yo'nalishi fanlarini o'qitishdan maqsad – talabalarga turli mavzulardagi ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish, ssenariy yaratishning nazariy asoslarini, madaniy tadbirlar turlari xususiyatlari jihatdan ssenariy yozish usullarini, madaniy-ommaviy tadbirlarning tashkillashtirishning amaliy va metodik jihatlarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish, faoliyatda qo'llay olish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanlarning vazifasi: turli mavzulardagi madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish, ssenariy yaratishning nazariy va amaliy jihatlari hamda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish uslublarini amalda bajarishni o'rgatish, san'at turlari madaniy-ommaviy tadbirlar va boshqa jarayonlarda tashkil etiladigan turli mavzudagi ssenariylarni yaratish, adabiyot va dramaturgiya qonuniyatlariga amal qilish, sahnaga ko'chirishlarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, faktik va hujjatli materiallarni badiiylashtirish, ijodiy va tashkiliy jarayonlar uyg'unligi, tadbirlarni tashkil etishda uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

## III. Bitiruv malakaviy ishi mavzulari

5151700 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi mavzularda BMI yozish mumkin:

Madaniyat va san'at sohasida ijtimoiy islohotlar tahlili.
“Nomoddiy madaniy meros va yoshlar”
Madaniyat va san'at – jamiyat taraqqiyoti manbai
Yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda madaniyat markazlarining o'rni.
“Inson kapitalini rivojlantirishda san'at va madaniyatning roli”
“Madaniyat va san'at muassasalarini boshqarishda guruhlararo munosabatlarning ahamiyati”
“Madaniy-hordiq faoliyatini optimallashtirishda san'atning roli”
“Madaniy tadbirlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish usullari”

“Madaniy menejment va hozirgi zamon jamiyatida nomoddiy madaniy meros muhofazasi siyosati”
O‘zbekiston madaniyat va san‘at sohasi boshqaruvida xorijiy modellarni qo‘llash
“Madaniyat va san‘at sohasidagi islohotlar va ularning samaralari”
“San‘at muassasalarida ijodiy jamoani boshqarishda yetakchi (lider)ning o‘rni”
Madaniyat markazlari va ularning yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotidagi asosiy vazifalari
“Ommaviy-madaniy tadbirlarni ta‘sirchanligini oshirish vositalari va uning ssenariyda aks ettirish”
Ijodiy jamoalar faoliyatini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari
Madaniyat sohasidagi davlat boshqaruvining zamonaviy konsepsiyalari
O‘zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyati va siyosiy faolligini oshirish asoslari
Madaniyat markazlarida to‘garaklar faoliyatini rivojlantirish masalalari: muammo va yechimlar
Boshqaruvda yetakchilik va liderlik: Yevropa va Markaziy Osiyo rahbarlari faoliyati tahlili
Umumxalq bayramlari – xalq farovon hayotining namunasini ifodalash vositasi sifatida
Madaniyat va san‘at terminlarining shakllanishi: muammo va yechimlar
Ommaviy madaniy tadbirlarda xalq tomosha san‘atining qo‘llanilishi.
Madaniy sohada menejmentning xususiyatlari.
Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san‘at boshqaruvining innovatsion tendensiyalari
“San‘at muassasalarida ijodiy jamoani boshqarishda yetakchi (lider)ning o‘rni”
Jamiyatda san‘at va madaniyatning o‘rnini oshirishda artbloggerlikning roli
Madaniyat markazi direktorlari faoliyatini rivojlantirish: muammo va yechimlar
Ommaviy bayram va tomoshalarni sahnalashtirishda zamonaviy ta‘sirchan vositalardan foydalanish
Hozirgi bosqichda O‘zbekiston madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish yo‘llari
Badiiy ijodni takomillashtirish, ijodkor shaxslar va iste‘dodlarni yuzaga chiqarish
Milliy madaniy faoliyatning an‘anaviy shakllarini saqlash va rivojlantirish
Havaskorlar badiiy ijodi va jamoat birlashmalarining hamkorlik harakati
Mamlakatning qishloq hududlarida madaniy hayot va turli ijtimoiy-madaniy jarayonlar uyg‘unligi
O‘zbekiston Respublikasi mehnatkashlarining ma‘naviy saviyasini yuksaltirish bo‘yicha madaniy-ma‘rifiy muassasalar faoliyati (2010-2020 yillar misolida)

Badiiy havaskorlik yoshlarni estetik tarbiyalash vositasi sifatida
Buxoro viloyatining madaniy-ma'rifiy muassasalari faoliyati (2010-2020 yillar misolida)
O'zbekiston ijtimoiy hayotida san'at muassasalarining o'rni (Mustaqillik yillari misolida)
O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalarining qishloq aholisining turmush madaniyatini yuksaltirish borasidagi faoliyati
Hozirgi bosqichda O'zbekiston fuqarolarining madaniy yutuqlari
Madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlarga estetik tarbiya berish ishlari
Madaniy-ma'rifiy ish ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida.
Madaniy-ma'rifiy ishlar va ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixini o'rganishga mintaqaviy yondashuv (Buxoro shahri misolida)
Yoshlarning intellektual jihatdan kamol topishi va ma'naviy-madaniyatining rivojlanishini ta'minlash
Madaniy ishlarda targ'ibot texnologiyalaridan foydalanish usullari
Madaniyat markazlarida havaskorlik ijodiy faoliyatni takomillashtirish usullari
O'zbek xalqining madaniy merosini asrash va rivojlantirish
Tarixiy va madaniy merosning muhofaza qilinishi va ularning rivojlanishida uzviylikni ta'minlash

### **Asosiy bo'limlar mazmuni:**

#### **Kirish:**

Kirishda tanlangan mavzuning ahamiyati, uning dolzarbligi, qisqacha mazmunini o'rganilganlik darajasi, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, erishilgan natijalar va uning ahamiyati ko'rsatiladi. Mazkur mavzuning mohiyatini ko'rsatish bilan o'tkaziladigan tadqiqotga qisqacha xarakteristika beriladi.

I.bob. Bu bobda mavzu nazariy jihatdan asoslanib beriladi. Mavzuni o'rganishda qo'yiladigan maqsad, o'quvchi-talabalar mavzuni o'rganish natijasida qanday ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak? Qanday masala, muammolarga diqqat qilish kerakligi nazariy jihatdan asoslab beriladi.

II bob. Bu qismda mavzu talabalarga qanday yetkazilishi, uning mazmunini anglab, puxta o'zlashtirishlari uchun qanday metodlar tanlash lozimligi, metodlar dars berish shakllariga ko'ra ma'ruza, amaliy darsda qanday qo'llanishi masalalari tadqiq etiladi. Avvalgi bobdan kelib chiqib, o'rganilayotgan mavzuning qanday alohida tomonlari bor, ularni qanday metodlar, vositalar yordamida o'rganish mumkinligini asoslab beriladi.

□ bobda dars o'tishning samarali metodlari, vositalarini tanlash, ularni takomillashtirish yo'llari yoritiladi. Bunda bitiruv oldi amaliyoti jarayonida turli metodlarni qo'llab, olingan natijalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etad.

### **Xulosa.**

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida olib borilgan izlanishga yakun yasab, ishning mazmunidan kelib chiqqan holda xulosa chiqariladi, hamda fanni, mavzuni puxta o'zlashtirishni ta'minlash, o'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlash, taqqoslash, qaror qabul qilishga o'rgatish nuqtayi nazaridan dars berish metodlarini, o'quv jarayonini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha takliflar beriladi.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanidan BMI yozish, boshqa mutaxassislik fanlaridan yozishga qaraganda ancha murakkab, sababi, birinchidan, talaba fanni, mavzuni chuqur bilishi, yangiliklardan xabardor bo'lishi; ikkinchidan esa, ana shu mavzu savollarini dars jarayonida talabalar ongiga qanday metodlar yordamida yetkazishni ham uddalashi va uni bitiruv malakaviy ishda ifodalashi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

Bu ro'yxatda malakaviy ish yozish jarayonida foydalanilgan barcha adabiyotlar va boshqa manbalar sanab o'tiladi.

Adabiyotlar ro'yxati yozganda talabalar ko'pincha uning qanday tartibda joylashtirishga, uni to'g'ri to'ldirishga qiynalishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishda uni bir necha shartli guruhga bo'lgan ma'qul.**

- O'zbekiston Respublikasining qonuniy hujjatlari va materiallari;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va rasmiy hujjatlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari;
- O'zbekiston Respublikasi vazirliklari me'yoriy-huquqiy hujjatlari.

#### **Maxsus adabiyotlar.**

- darsliklar;
- o'quv qo'llanmalar;

- ilmiy monografiyalar;
- doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari;
- ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plamlari;
- gazeta va jurnal maqolalari;
- statistik ma'lumotlar;
- nashr etilgan manbalar (statistik ma'lumotlar);
- nashr etilmagan manbalar.
- Internet saytlari.

### **Bitiruv malakaviy ishni baholash mezonlari**

1. Ilmiy rahbar, retsenzent va DAK a'zolari BMI larni baholash mezonlari sifatida quyidagilarni e'tirofga olish kerak;

- mavzuning va ish vazifalarining dolzarbligi;
- natijalar va xulosalarning asoslanganligi;
- olingan natijalarning ma'lum ma'noda yangiligi;
- mustaqilligi (talabning shaxsiy hissasi);
- olingan natijalarning amalda foydalanish imkoniyati.

2. Natijalar va xulosalarning asoslanganligi quyidagi holatlar yordamida aniqlanadi:

- \* ma'lum ilmiy holatlar va faktlarga mosligi;
- \* o'z natijalarining bayonidagi va muhokamasidagi mantiqiylik;

3. Tajriba, eksperimental o'tkazishdagi korrektilik. Bunda quyidagilar e'tiborga olinishi kerak;

- himoyadagi og'zaki ma'ruza darajasi;
- ishning o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilganligi;
- ma'ruzaga tayyorlangan ko'rgazmali material sifati.

4. Shaxsiy hissa mavzuni tanlashdagi, masalani qo'yishda, tadqiqotni rejalashtirish va tashkillashtirish, olingan natijalarni qayta ishlash va anglashdagi mustaqilligi darajasi bilan aniqlanadi.

### **Baholash tartibi**

1. BMI 100 ballik tizimda baholanadi: 90-100 – "a'lo", 71-89 – "yaxshi", 60-70 – "qoniqarli", 0-59 – "qoniqarsiz".

2. BMI DAK a'zolari tomonidan retsenzent taqrizi va talabning ma'ruzasi asosida baholanadi. DAK a'zolari ishning saviyasini aytilgan mezonlardan tashqari



(oldingi punktni qarang) talabning o'z ishini taqdimot etish ko'nikmasini va DAK a'zolari savollarga to'g'ri javob berishini ham e'tiborga oladi.

**3. 90-100 ball** to'g'ri nazariy qism, materialni mantiqan, ketma-ket bayon qilingan va mos xulosalar va asoslangan holatlari mavjud tadqiqiy xarakterdagi BMI ga qo'yiladi.

Talaba BMI ni himoya qilishda mavzuning masalalarini chuqur bilishi, tadqiqot ma'lumotlari bilan erkin amallar bajaradi, ma'ruza paytida ko'rgazmali materialdan foydalaniladi, berilgan savollarga erkin javob beradi. BMI ilmiy rahbar va retsenzentning ijobiy taqriziga ega.

**71-89 ball** to'g'ri nazariy qism, materialni mantiqan, ketma-ket bayon qilingan va mos xulosalar, lekin holatlarni asoslashda kamchiliklari mavjud bo'lgan tadqiqiy xarakterdagi BMI ga qo'yiladi.

Talaba BMI ni himoya qilishda mavzuning masalalarini bilishi, tadqiqot ma'lumotlari bilan erkin amallar bajaradi, ma'ruza paytida ko'rgazmali materialdan foydalaniladi, berilgan savollarga erkin javob beradi. BMI ilmiy rahbar va retsenzentning ijobiy taqriziga ega.

**60-70 ball** tadqiqiy xarakterdagi BMI ga qo'yiladi. Tahlil yuzaki bajarilgan, bayon qilishda mantiqiy ketma-ketlik qilishda xatolar mavjud. Mavzuda qaralayotgan masalalarni bo'sh biladi. Himoyada berilgan savollarga ikkilanib javob beradi. Javoblarda noaniqliklar mavjud. Ilmiy rahbar va retsenzent taqrizlarida ishning mazmuni va tahlil metodikasiga oid kamchiliklar ko'rsatilgan.

**0-59 ball** tadqiqiy xarakterda bo'lmagan BMI ga qo'yiladi. Tahlil yuzaki bajarilgan, bayon qilishda mantiqiy ketma-ketlik qilishda xatolar mavjud. Ish kafedra tomonidan ishlab chiqilgan talablariga javob bermaydi. Ishda xulosa yo'q yoki ish deklorativ xarakterga ega. Himoya paytida berilgan savollarga javob berishda qiynaladi, qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi. Ilmiy rahbar va retsenzent taqrizlarida jiddiy kamchiliklar ko'rsatilgan.

I. DAK yakuniy bahosi DAK a'zolarining ishiga qo'ygan ballari asosida belgilanadi.

### **BAHOLASH KO'RSATKICHLARI**

Tanlangan mavzuning dolzarbligi, tuzilgan rejaning mazmunan to'liqligi, bitiruv ishining maqsadi va vazifalarini aniq ko'rsatilganligi. **15 ball**

Rejada berilgan savollarning matnda aks ettirilishi, bitiruv malakaviy ishini talab darajasida rasmiylashtirilishi. **5 ball**

Mavzuni yoritishda, uni o'rganilganlik darajasini tahlil qilishda, chet el va respublikada nashr etilgan adabiyotlardan foydalanish darajasi. **10 ball**

Mavzu bo'yicha keltirilgan jadval ma'lumotlaridagi ko'rsatgichlarning oxirgi yillarni qamrab olinganligi, tahlil qilish bo'yicha iqtisodiy usullarni bilishi.

**15 ball**

Mavzu yuzasidan respublikamizdag va xorijiy mamlakatlar tajribasining o'rganilganlik darajasi va uni tatbiq etish yuzasidan berilayotgan takliflar. **15 ball**

Mavzu bo'yicha qilingan xulosalar, berilgan takliflarning ilmiy va amaliy jihatdan asoslanganlik darajasi. **10 ball**

Matnda, keltirilgan manbalarning adabiyotlar ro'yxatiga mosligi, ulardan o'z o'rnida foydalanilganlik darajasi. **10 ball**

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini yoritib berishda, uni himoya qilishda ko'rgazmali ma'lumotlardan, ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi. **10 ball**

Bitiruv malakaviy ishi chet tilida talab darajasida bajarilishi va himoya qilinishi. **10 ball**

### **JAMI**

5151700 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish metodlarini qay darajada bilishlari va mavzu bo'yicha qo'llashni aks ettirganliklari hisobga olinadi.

Talaba tomonidan bajarilgan BMI yuqorida keltirilgan mezonlar asosida baholanib, quyidagicha tabaqalashtiriladi:

59 ballgacha – “qoniqarsiz” baho;

60 balldan – 70 ballgacha “qoniqarli” baho;

71 balldan – 89 ballgacha “yaxshi” baho;

90 balldan – 100 ballgacha “a'lo” baho.

**Bitiruv malakaviy ish himoyasining natijasi Yakuniy Davlat Attestatsiya komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi.**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Abu Nasr Farobiy, “Fozil odamlar shahri”, Toshkent, G'afur G'ulom. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
2. A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”, Toshkent, 1993
3. Bekmurodov B, Qurbonboyev Q, Tangriyev L. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. Toshkent. G'afur G'ulom. 2017
4. Strategic Innovatsion Management University of Exeter, John Bessant, 978-92-85513-9-5 2014

5. Innovatsion Management, Institute for Innovatsion and Technology, prof. Borut Likar ISBN 978-91-90592-9 Sloveniya, 2013 180 p
6. Kaykovus. "Qobusnoma" Toshkent. Yangi asr avlodi. 2018
7. To'ychiyeva S, Norbekov A. Ijtimoiy siyosiy faoliyat. Toshkent. Fan va texnologiyalari. 2010
8. To'ychiyeva S. Shaxs ijtimoiy faolligi va ma'naviy madaniyat. Toshkent. Milliy ensiklopediya ilmiy nashriyoti.2016
9. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot.Fan.2004
10. Fayziyev T, Sobirjonova D, Sulaymonov B. Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish (ma'ruza matni) T. 2002
11. Xaydarov A. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. Toshkent. G'afur G'ulom. 2016
12. X.Muhammad. Ssenariynavislik asoslari. T. Fan va texnologiya. 2009
13. V.Rustamov. Ssenariynavislik mahorati.t. 2016
14. X.Abdusamatov.Drama nazariyasi. T, O'qituvchi.2003
15. B.Sayfullayev, V.rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent: Fan va texnologiya. 2016
16. Djon Govard Louson, Teoriya i metod Playwriting i napisaniye ssenariy. Avgust, 2014 (Playwriting and Screenwriting, Avgust 2014)
17. U.Qoraboyev. "Madaniy tadbirlar", T. 2006
18. Qoraboyev U.X. O'zbek xalq bayramlari. Toshkent: O'qituvchi, 2002

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Ma'naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Toshkent. "O'zbekiston", 1998
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etamiz. Toshkent. "O'zbekiston", 2016
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. "O'zbekiston", 2017
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. O'zbekiston. 2017
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. "O'zbekiston", 2017
6. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent. "Ma'naviyat". 2008
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017-yil 14-fevraldagi F-4849 Farmoni

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017-yil 16-fevral Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2018-yil 5-apreldagi Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora tadbirlar to'g'risida" gi 2017-yil 31-may Qarori.
11. "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2017-yil 8-avgust Qarori.
12. "O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi 2017-yil 15-avgust Qarori.
13. "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" gi Prezident qarori // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017-yil 17-oktabr.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-son Qarori
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida" gi 2018-yil 6-apreldagi Qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida" gi 2018-yil 1-noyabrdagi Qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida" gi 2018-yil 1-noyabr Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 2018-yil 28-noyabr Qarori.
19. Ahmedov F. E Ommaviy Bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424-b.
20. Mahmudov J., Mahmudova X. Rejissura asoslari. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 224-b.
21. Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.- 388 b.
22. Sayfullayev B.S Mamatqosimov J.A Aktyorlik mahorati.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
23. Sayfullayev B.S Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 152-b.

## Internet saytlari

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.teatr.uz](http://www.teatr.uz)
3. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.teatr.uz](http://www.teatr.uz)
7. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)

**Musiqa ijrochiligi va  
madaniyat kafedrasi mudiri**



**T.I.Rajabov**